



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJIRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitara Baxodir qizi	



SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI

Saloxiddinova Sitara Baxodir qizi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Tayanch doktoranti

Email: sitorasalokhiddinova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada smart universitet modelining shakllanishi va rivojlanishiga oid xalqaro tajribalar tahlil qilinadi hamda ushbu modelni Yangi O'zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari o'rganiladi. Covid-19 pandemiyasi sharoitida oliy ta'lim tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlar smart texnologiyalarni ta'lim, boshqaruv va infratuzilma jarayonlariga integratsiya qilish zaruratini keskin oshirdi. Tadqiqot davomida Finlyandiya, Avstraliya, Singapur va AQShning yetakchi universitetlari misolida smart universitet modelining asosiy tarkibiy elementlari, jumladan raqamli ta'lim, aqlli kampus, sun'iy intellekt, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv va innovatsion o'quv muhitlari tahlil qilinadi. Olingan natijalar asosida smart universitet modelini milliy ta'lim tizimiga moslashtirishda ustuvor yo'nalishlar aniqlanadi hamda Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: smart universitet, raqamlashtirish, aqlli kampus, oliy ta'lim, xalqaro tajriba, Yangi O'zbekiston.

Abstract. This article examines the international experience in the development and implementation of the smart university model and explores the possibilities of adapting this model to the context of New Uzbekistan. The Covid-19 pandemic has caused significant changes in higher education, highlighting the urgent need to integrate smart and digital technologies into educational, administrative, and infrastructure processes. The study analyzes leading universities in Finland, Australia, Singapore, and the United States, focusing on the core components of the smart university model, including digital learning, smart campuses, artificial intelligence, data-driven management, and innovative learning environments. Based on the findings, key priorities for adapting the smart university model to the national higher education system are identified, and practical recommendations are proposed for universities in New Uzbekistan.

Key words: smart university, digitalization, smart campus, higher education, international experience, New Uzbekistan.

Аннотация. В статье анализируется международный опыт формирования и развития модели «умного университета», а также рассматриваются возможности её внедрения в условиях Нового Узбекистана. Пандемия Covid-19 вызвала значительные изменения в системе высшего образования, что подчеркнуло необходимость интеграции интеллектуальных и цифровых технологий в образовательные, управленческие и инфраструктурные процессы университетов. В ходе исследования рассматриваются ведущие университеты Финляндии, Австралии, Сингапура и США, анализируются ключевые компоненты модели «умного университета», включая цифровое обучение, умный кампус, искусственный интеллект, управление на основе данных и инновационные образовательные среды. На основе полученных результатов определяются приоритетные направления адаптации модели к национальной системе высшего образования и разрабатываются практические рекомендации для университетов Нового Узбекистана.

Ключевые слова: умный университет, цифровизация, умный кампус, высшее образование, международный опыт, Новый Узбекистан.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va texnologik taraqqiyot ta'siri ostida tubdan o'zgarib bormoqda. Covid-19 pandemiyasi ta'lim jarayonlarini tashkil etishda an'anaviy yondashuvlarning yetarli emasligini ko'rsatdi va smart universitet modeliga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Ushbu model ta'lim, boshqaruv, infratuzilma va xizmatlar tizimida raqamli va aqlli texnologiyalarni kompleks tarzda qo'llashni nazarda tutadi.

Maqolaning asosiy maqsadi yetakchi xorijiy universitetlarda smart universitet modelining joriy etilish tajribasini tahlil qilish, uning asosiy tarkibiy elementlarini aniqlash hamda ushbu modelni Yangi O'zbekiston



oliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini baholashdan iborat. Shu bilan birga, maqolada xalqaro tajriba asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda smart universitet va raqamli transformatsiya konsepsiyalari xalqaro ilmiy adabiyotda chuqur o'rganilmoqda. Nguyen Huu et al. (2020) smart universitetni shunday ta'riflaydi: "Smart universitet — bu raqamli infratuzilma, shaxsga yo'naltirilgan o'qish imkoniyatlari va interaktiv o'quv muhitini yaratish orqali talabalarga zamonaviy ta'lim xizmatlarini taqdim etadigan oliy ta'lim muassasasidir."

Senny Luckyardi et al. (2024) o'z tizimli adabiyot tahlilida IoT (Internet of Things) texnologiyalarining smart universitetlarda qo'llanilishi universitet boshqaruvi, xavfsizlik, talabalar tajribasi va resurslarni samarali boshqarishda muhim rol o'ynashini qayd etadi: "Smart universitetlar IoT texnologiyalari yordamida yanada samarali va xavfsiz muhit yaratadi, bu esa akademik jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qiladi."

Mahalliy nuqtayi nazardan, O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalarning oliy ta'limda o'rni oshayotgani qayd etilgan. Mohizoda Abduqodirova (2025) sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi oliy ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini ham ta'kidlaydi: "Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, ammo muvaffaqiyatli joriy etish uchun o'qituvchilarning raqamli tayyorgarligi ham muhimdir."

Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, smart universitet modeli raqamli texnologiyalarni joriy etishdan narigi ta'lim sifati, boshqaruv tizimi, IoT va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kabi komponentlar bilan mustahkam bog'liqdir. Bu nuqtayi nazar smart universitetni samarali strategik model sifatida shakllantirish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish jarayonida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Xorijiy nufuzli universitetlarning (Metropolia UAS, Sidney Universiteti, NUS, Stanford Universiteti) smart universitet tajribalari o'rganildi. Shu bilan birga, raqamli va akademik resurslar tahlili asosida asosiy elementlar aniqlandi.

Tadqiqot bosqichlari:

1. Xorijiy universitetlarning smart universitet modelini o'rganish.
2. Model tarkibiy elementlarini aniqlash va ularni tasniflash.
3. Yangi O'zbekiston sharoitida moslashtirish imkoniyatlarini baholash.
4. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir davlat o'z oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda inson kapitali sifatini oshirish maqsadida smart universitet modeli asosida bosqichma-bosqich isloh qilmoqda. Mazkur model an'anaviy universitet konsepsiyasidan farqli ravishda ta'lim, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv va infratuzilma jarayonlarini yagona raqamli ekotizim doirasida integratsiyalashga qaratilgan bo'lib, unda sun'iy intellekt, Internet of Things (IoT), katta ma'lumotlar (Big Data), virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), shuningdek, kiberxavfsizlik texnologiyalaridan faol foydalaniladi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, smart universitetlar nafaqat ta'lim sifati va moslashuvchanligini oshiradi, balki mehnat bozori talablari bilan ta'lim mazmuni o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Quyidagi jadvalda yetakchi xorijiy universitetlar misolida smart universitet modelining asosiy elementlari va ularning amaliy natijalari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Xorijiy universitetlar tajribasi

Universitet	Smart elementlar	Natija/afzalliklar
Metropolia UAS, Finlyandiya	Innovatsiya markazlari, interaktiv ta'lim	Talabalar fanlararo muammolarni hal qiladi
Sidney Universiteti, Avstraliya	Onlayn va VR ta'lim, IoT qurilmalar	Masofaviy ta'lim va aqlli kampus infratuzilmasi rivojlandi
NUS, Singapur	Sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, BIM va GIS	Milliy strategiya bilan uyg'unlashgan smart kampus
Stanford, AQSh	Barqaror rivojlanish, onlayn ta'lim	Global raqobatbardoshlik oshdi



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, smart universitet modeli har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, milliy strategik ustuvor yo'nalishlari va mehnat bozori ehtiyojlariga mos holda shakllantirilgan. Xususan, Finlyandiya tajribasida innovatsiya markazlari va loyiha asosidagi interaktiv ta'lim orqali talabalar real sektor muammolarini hal etishga yo'naltirilgan bo'lsa, Avstraliyada raqamli va masofaviy ta'lim infratuzilmasi kengaytirilgan. Singapurda smart universitet konsepsiyasi davlatning raqamli iqtisodiyot va milliy xavfsizlik strategiyalari bilan uzviy bog'langan holda rivojlangan, AQShda esa smart universitet modeli global raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, smart universitet modeli faqat texnologik yangilanish bilan cheklanmaydi, balki ta'lim boshqaruvi, akademik erkinlik, innovatsion madaniyat va universitet-sanoat-davlat hamkorligi mexanizmlarini ham tubdan takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu modelni Yangi O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirishda texnologik yechimlar bilan bir qatorda institutsional va boshqaruv islohotlariga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilinadigan asosiy natijalar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- Aqlli kampus va sun'iy intellekt orqali resurslarni samarali boshqarish imkoniyati mavjud.
- Milliy strategiya bilan uyg'unlashtirish modelning barqarorligini oshiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, smart universitet konsepsiyasi faqat texnologik infratuzilma va raqamli vositalarga bog'liq emas, balki butun ta'lim tizimi, boshqaruv usullari, kadrlar salohiyati va moliyalashtirish mexanizmlariga ham bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekistonda smart universitetlarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun bir qator asosiy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

1. Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish. Zamonaviy universitetlarda yuqori tezlikdagi internet, virtual laboratoriyalar, IoT va sensor tizimlar, shuningdek, bulutli ma'lumotlar saqlash imkoniyatlari ta'lim jarayonini samarali va qulay qiladi.

2. O'qituvchilar va boshqaruv xodimlarini raqamli kompetensiyalar bilan ta'minlash. Smart universitetda texnologik vositalardan samarali foydalanish uchun pedagoglar va boshqaruv xodimlari muntazam ravishda malaka oshirish, innovatsion metodlarni qo'llash va ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha tayyor bo'lishi lozim.

3. Moliyaviy va strategik rejalashtirishni ilg'or tajribaga moslash. Smart universitet konsepsiyasini joriy etish katta investitsiyalarni talab qiladi. Shu sababli moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, strategik rejalashtirishni ilg'or xalqaro tajribaga moslashtirish zarur.

4. Talabalar uchun interaktiv va innovatsion ta'lim muhitlarini yaratish. Smart universitetda ta'lim interaktiv, moslashuvchan va innovatsion bo'lishi lozim. Virtual sinflar, masofaviy laboratoriyalar, AR/VR texnologiyalari, onlayn resurslar va shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'nalishlari talabalar bilimni chuqurlashtirish va ularni global kompetensiyalar bilan ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, smart universitet konsepsiyasini joriy etishda texnologik, iqtisodiy, boshqaruv va inson resurslari omillari kompleks tarzda uyg'unlashtirilishi lozim. Faqat shu holatda Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari zamonaviy raqamli ta'lim platformalariga asoslangan, innovatsion va barqaror universitetlarga aylanishi mumkin.

Shuningdek, davlat siyosati, milliy strategiyalar va texnologik rivojlanish bilan uyg'unlashgan holda smart universitetlar Yangi O'zbekistonning oliy ta'lim tizimi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nguyen, H. (2025). Application of Smart-Learning Technologies in a Digital Educational Environment: Foreign Experience and Prospects for Implementation in the Education System of Uzbekistan. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(4), 393–399.
2. Abduqodirova, M. (2025). Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimida qo'llanilishi: imkoniyatlar va muammolar. *Research and Implementation*, 3(12), 208–213. <https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/1872>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5847-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4545884>
4. Metropolia University of Applied Sciences (Finlyandiya): <https://www.metropolia.fi/en>
5. The University of Sydney (Avstraliya): <https://www.sydney.edu.au>
6. National University of Singapore (Singapur): <https://nus.edu.sg>
7. Stanford University (AQSh): <https://www.stanford.edu>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
